

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA FANLARNI O’QITISH JARAYONIGA TADBIQ ETILGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

**Qurbonova Feruza
Maxamatjon qizi
ADPI, Pedagogika va psixologiya kafedrası
o’qituvchisi
G’ulomova Sadoqat Murodjon qizi,
Oribjonova Mubinabonu Ilhomjon
qizi
“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari”
yo’nalishi 2-bosqich talabalari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2020-2025 yillarda xalq ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati, yuksaltirish masalalari hamda inklyuziv ta’lim sharoitida ta’lim olayotgan bolalar uchun pedagogik yondashuvlar va nazariy hamda amaliy metodikalar qo’llanilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Inklyuziv ta’lim, ta’lim, pedagogik yondashuvlar, metod, maktab, imkoniyati cheklangan bolalar, muammolar.

Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi. Ya’ni imkoniyati cheklangan bola sog’lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o’qiy olishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi PF- 5712-son farmoniga muvofiq O’zbekistonda inklyuziv Ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko’rsatiladigon ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadidad:

2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko’rsatkichlari tasdiqlandi. Imkoniyati cheklangan o’quvchilarni ta’lim tarbiyasida teng huquqiylik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda juda ham ko’plab bolalar turli xildagi sabab va muammolarga ko’ra ta’limdan chetta qolmoqdalar. Inklyuziv ta’limga jalb qilishning tashkiliy ilmiy- uslibiy choralari ko’rib chiqish ya’ni mutaxasislarini tayyorlash malakasini oshirishga doir chora tadbirlar ishlab chiqish lozim. Imkoniyati cheklangan o’quvchilar ham sog’lom tengdoshlari bilan yonma- yon o’qish, ta’lim olish huquqiga egadirlar. Inklyuziv ta’lim rasmiy ta’lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta’limda ko’proq o’qishda o’rganishda imkoniyati cheklangan bolar bilan ishlaydi. Yangi qabul qilingan qonunda keltirilganidek umumiy o’rta ta’lim maktablarida har bir sinfda nogironli bo’lgan bolalar ta’lim tarbiya olishi va ularga barcha qulayliklar yaratib berilishi hamda ularga birlashtirilgan pedagoglarning inklyuziv tafakkurga ega bo’lishi va ta’lim sifati ma’suliyatini o’z zimmasiga olishi shart, deb qayd qilib o’tib ketilgan.

Kelgusida biz ham maktablarga malakali pedagog sifatida o’quvchilarga ta’lim tarbiya berish uchun boramiz . Har bir yangi pedagogka yangi sinflar birlashtiriladi u hoh sog’lom bolalar sinfi hoh inklyuziv sinf bo’lishidan qat’iy nazar. Agar biz tahsil berayotgan sinfda nogironli bo’lgan bolalar bo’lsa ularga o’z imkoniyatidan kelib chiqqan holda fan doirasidan amaliy tipshiriqlar berish zarur. Masalan: Kar-soqovligi bor bolalar uchun **“Geografiya va uni o’qitish”** metodikasida - ularga dars berish jarayonida audio manbalar va ko’rgazmali qurollar orqali tushuntirilasa bolada o’qish holatidan ko’ra, ko’rib o’rgatgan ma’lumot va

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

bilimlari ko‘proq esda qoladi. Nogironli bo‘lgan bolalarga asosan nazariy jihatdan ko‘ra amaliy bilimlar berish ularni yanada tezroq bilim olishiga yordam beradi. Ularga nazariy bilimlarni sog‘lom bolalar bilan birga berib turib amaliy darslarni ular uchun alohida tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki sog‘lom bola bu bolalarga qaraganda bilim olish darajasi tez bo‘lganligi uchun amaliy dars jarayonlarini o‘rganish nogironligi bor bolalar uchun qiyin tuyulishi mumkin. Amaliy dars mashg‘ulotlarini inklyuziv ta’lim jarayonidagi bolalar uchun **“Geografiya va uni o‘qitish”** metodikasidagi turli metodlar orqali masalan: nogironligi bo‘lgan bola uchun **Materiklar va okeanlar** - mavzusini tushuntirishda bolaga tabiiy holatda biror bir materik hududini yasab o‘rgatsa bolada qiziquvchanlik darajasi oshishi mumkin. Agarda u oyoqlaridan ayrilgan bo‘lsa o‘sha tasvirlayotgan hududiga borolmasligi mumkin. Shuning uchun bola o‘z tasavvur va talablaridan kelib chiqqan holatda fanga oid materiklar maketlarini yasashi ham mumki. Inklyuziv ta’limning asosiy moohiyati shundaki nogironligi bo‘lgan bolarni ruhan qo‘llab-quvvatlash, ularni jamiyatga qo‘shish hamda sog‘lom bolalar qatori ta’lim olishini taminlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-soni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.